

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

«O‘ZDAVYERLOYIHA» DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

ABDULLAYEVA MAXFUZA TULQINOVNA

**QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARI MONITORINGINI RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Qashqadaryo viloyati misolida)**

06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Abdullayeva Maxfuza Tulqinovna

Qishloq xo‘jalik ekinlari monitoringini raqamli texnologiyalar asosida tashkil
etish usullarini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida) 3

Абдуллаева Махфуза Тулкиновна

Совершенствование методов организации мониторинга
сельскохозяйственных культур на основе цифровых технологий (на
примере Кашкадарьинской области) 21

Abdullaeva Maxfuza Tulqinovna

Improving methods of organizing monitoring of agricultural crops based on
digital technologies (on the example of Kashkadarya region) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

«O‘ZDAVYERLOYIHA» DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

ABDULLAYEVA MAXFUZA TULQINOVNA

**QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARI MONITORINGINI RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Qashqadaryo viloyati misolida)**

06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Qx465 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya «O'zdavyerloyiha» davlat-ilmiy loyihalash institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Avezbayev Sadulla
iqtisod fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ruzmetov Maksud Ismoilovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Narbayev Sharafatdin Kengeshovich
iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning « 17 » 03 2023 yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, E-mail: tuag_info@edu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (547995 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 03 » 03 kuni tarqatildi.

(2023 yil « 03 » 03 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).


D.A.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, b.f.d., dotsent
N.I.Shadiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash umm. kotibi, b.f.d., katta ilmiy xodim
U.Norqulov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qishloq xo‘jaligi ekin yer maydonlari 2021-yil holatiga 1,6 mlrd. gektarni tashkil etadi¹. BMTning Xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi yerlarida dunyo aholisi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarining taxminan 88 foizini yetishtiriladi. Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi ekin yerlari monitoringini yuritishda zamonaviy innovatsion usullarni qo‘llash yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. Shu jumladan, qishloq xo‘jaligi ekinlari monitoringi yuritishda ham zamonaviy texnik va texnologik yechimlarni qo‘llash va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan qishloq xo‘jaligi ekinlari monitoringini yuritish va uni raqamlashtirish masalalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ekin yerlari va ekin turlari monitoringini yuritishning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, ekin yerlarini monitoringini yuritish uchun turlicha yondashuvlar va mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, yer tuzish va yer monitoringini to‘g‘ri tashkil etish, ayniqsa agrar sohada qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan to‘g‘ri va maqsadli foydalanishni ta’minlash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o‘zlashtirish, ilmfan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta’minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yerdan foydalanuvchilar faoliyatiga innovatsion ta’sir ko‘rsatuvchi tizim yaratish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish orqali qishloq xo‘jaligi ekinlari monitoringini yuritish hamda agrar soha barqarorligini va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5742-son Farmoni asosida qabul qilingan «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish» nomli konsepsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4575-son Qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <https://www.fao.org/land-water/solaw2021/ru/>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlarini joylashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar xorijlik bir qator olimlar L.Heikki, T.Zhai, G.Jin, X.Deng, Z.Li, Y.Wang, G.Zhu, Y.Liu, W.Ju va J.Chen, G.Gao, B.Yang, L.Wang, L.Cheng, D.Li, J.Qi, S.Niu, L.Ma, H.He, W.G.Bastiaanssen, M.Menenti, R.A.Feddes, A.A.M.Holtslag, N.Zhang, W.Wang, Y.Wang, R.G.Allen, M.Tasumi kabilar, shuningdek, MDH mamlakatlarining bir qator yetakchi olimlari S.N.Volkov, A.A.Varlamov, Y.M.Maul, N.V.Gopp, Sh.M.Deyvis, V.N.Antonov, L.A.Sladkix,, V.S.Marchukov, YE.A.Stitsenko, I.Y.Savin, Ye.Y.Saxarova, Ye.V.Belorusseva, S.A.Avezbaev, M.I.Ruzmetov, R.A.Turayev, G'.T.Parpiyev kabilar tomonidan olib borilgan.

So'ngi yillarda mamlakatimizda yer monitoringi yo'nalishida yer resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, turli xil uslublarga asoslangan monitoring tadqiqotlarini yuritish, shu jumladan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari tuproq-meliorativ monitoringi (G'.T.Parpiyev, 2009), sug'oriladigan yerlar monitoringi metodologiyasini takomillashtirish (R.A.Turayev, 2021), yaylov yerlari va ulardan samarali foydalanish (M.I.Ruzmetov, 2022), yaylov yerlarini masofadan zondlash (O.O'.Davronov, 2022), lalmi yerlarda monitoring yuritishni tashkil etish (R.B.Sharopov, 2022) kabi mavzularda ilmiy izlanishlar olib borilgan va muayyan ijobiy natijalarga erishilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlari monitoringini yuritishda ana'anaviy monitoring (davriy monitoring, joriy monitoring, tezkor monitoring) uslubiyotidan foydalaniladi, lekin qishloq xo'jalik ekinlari monitoringini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish uslublarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli, qishloq xo'jalik ekinlari monitoringini yuritish usulini takomillashtirishga zarurat paydo bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi «O'zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi asosida olib borilgan (2019-2022-yy.).

Tadqiqotning maqsadi qishloq xo'jaligi ekin yerlari va turlari monitoringini yuritishni zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qishloq xo'jalik ekin turlari monitoringini miqdor va sifat jihatdan yuritishni ilmiy asoslash;

qishloq xo'jaligida davriy, joriy va kunlik monitoring ishlarini amalga oshirish mexanizmi tartibini takomillashtirish;

sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi yerlari sharoitida gʻoʻza va boshqoli don ekinlarining Sentinel 2 sunʻiy yoʻldoshidan olingan kosmik suratlar yordamida monitoringini yuritishning maqbul muddatlarini asoslash;

zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida qishloq xoʻjaligi ekin yerlari va ekin turlari monitoringini yuritish orqali ulardan samarali foydalanishni ilmiy asoslash;

qishloq xoʻjaligi ekinlarining zamonaviy monitoringini yuritish boʻyicha takomillashgan uslubiyatini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida respublikamizning Qashqadaryo viloyati qishloq xoʻjalik ekin yerlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti qishloq xoʻjalik ekinlari monitoringini yuritishning usullari, texnika va texnologiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish jarayonida tizimli tahlil, monografik, tahliliy taqqoslash, masofadan zondlash usullari (Yerning Sentinel 2 kosmik sunʻiy yoʻldoshi, kartogorafik va monitoring dronlar)dan va GAT texnologiyalari (*Yerning Sentinel 2 kosmik sunʻiy yoʻldoshi, kartogorafik va monitoring dronlar*)dan va GAT texnologiyalari (*Космический мониторинг в сельском хозяйстве* <https://sovzond.ru/industry-solutions/agro>, *ESA Sentinel online, Sentinel-2 User Handbook, 2021*) dasturiy taʼminotidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qishloq xoʻjalik ekin yerlari va ekin turlari monitoringini miqdor va sifat jihatdan yuritish usuli isbotlangan;

takroriy, oraliq va toʻqsonbosti ekinlari monitoringini yuritish tartibi sxemasi asosida monitoring ishlarini tashkil etish taklif etilgan;

qishloq xoʻjalik ekinlari monitoringini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish usullarini takomillashtirishda qishloq xoʻjaligi ekinlarini joylashtirish rejasi > ArcGIS dasturi > anʼanaviy monitoring > Field Map mobil ilovasi > kosmosurat (Sentinel 2 NDVI) > ArcGIS dasturi > «R-GIS» portali ketma-ketligi mexanizmi asoslangan;

ilk bor, sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi yerlari sharoitida gʻoʻza va boshqoli don ekinlarining Sentinel 2 sunʻiy yoʻldoshidan olingan kosmik suratlar yordamida monitoringini yuritishning maqbul muddatlari (aprel, iyun, avgust va oktabr oylarining 01-30 kunlarida oʻtkazish) asoslab berilgan;

zamonaviy innovatsion geoaxborot texnologiyalar asosida qishloq xoʻjaligi ekin yerlari va ekin turlari monitoringini yuritish orqali ulardan samarali foydalanish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qishloq xoʻjaligi ekinlarining zamonaviy monitoringini yuritish boʻyicha takomillashgan uslubiyati ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan;

1000 gektar qishloq xoʻjaligi ekin yerlarini masofadan zondlashning anʼanaviy usulga nisbatan 1 nafar yer tuzuvchi muhandisga vaqt sarfi 3 kundan 40 minutga va maʼlumotlarni qayta ishlash uchun 1 kundan 4 soatga qisqarishi, oylik ish haqqi hisobida talab etiladigan harajat (kunlik) 300 ming soʻmdan 220 ming soʻmga kamayishi isbotlangan;

qishloq xo'jaligi ekin turlari to'g'risidagi kompleks ma'lumotlarni geovizuallashtiruvchi «R-GIS» nomli ochiq dastur ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

2022-yilda Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi 9 ta massivida g'oz'ni ekin ekilgan maydonlar rejaga nisbatan yer tuzuvchining xatlovi monitoringi natijalari o'rtacha arifmetik qiymati 93,6% ni, boshqoqli don ekin ekilgan maydonlar 93,0% ni, kosmik suratlar monitoringi natijalarida esa g'oz'ni ekin maydonlarida 106,3% ni va boshqoqli don ekin ekilgan maydonlarda 98,1% ni tashkil etishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va aniqligi ana'anaviy monitoring, zamonaviy GAT usullarini qo'llanilganligi va masofadan zondlash usullari asosida bajarilganligi, «Yer axborot tizimi» YAT»ning ochiq portalini takomillashtirish natijasida «R-GIS» nomli ochiq dasturi ishlab chiqilganligi, ularning statistik tahlil qilinishi, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi, Respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi nufuzli xorijiy va Respublika ilmiy jurnallarida chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qishloq xo'jalik ekin turlari monitoringini miqdoriy va sifat jihatdan yuritish usullari isbotlanganligi, takroriy, oraliq va to'qsonbosti ekinlari monitoringini yuritish tartibi sxemasi taklif etilganligi, ilk bor, sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari sharoitida g'oz'ni va boshqoqli don ekinlarini Sentinel 2 sun'iy yo'ldoshidan olingan kosmik suratlari yordamida monitoring yuritishning maqbul muddatlari asoslab berilganligi, qishloq xo'jaligi ekin yerlari va ekin turlari monitoringini yuritish orqali ulardan samarali foydalanish mumkinligi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, qishloq xo'jalik ekinlari monitoringini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va uni monitoringini yuritish bo'yicha takomillashtirilgan usullari, qishloq xo'jaligi ekin turlari to'g'risidagi kompleks ma'lumotlarni geovizuallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan «R-GIS» nomli ochiq dasturi qishloq xo'jalik ekin yerlari va ekinlari monitoringini yuritish hamda ulardan samarali foydalanish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyati misolida qishloq xo'jalik ekinlari monitoringini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish usullarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

qishloq xo'jaligi ekinlarining zamonaviy monitoringini yuritish bo'yicha takomillashtirish uslubi ishlab chiqilgan va Qishloq xo'jaligi vazirligi Qashqadaryo viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasi Yakkabog' tumani bo'limida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 5-sentabrdagi 04/30-04/6238-son ma'lumotnomasi). Natijada, qishloq xo'jaligi ekinlari monitoringini yuritish va ulardan samarali foydalanishda uslubiy tavsiyanoma sifatida xizmat qilgan.

sugʻoriladigan qishloq xoʻjaligi yerlari sharoitida gʻoʻza va boshqoli don ekinlarini NDVI koʻrsatkichlari orqali monitoringini yuritishning maqbul muddatlari ishlab chiqilgan va «Oʻzdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti Qashqadaryo boʻlinmasida amaliyotga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2022-yil 5-sentabrdagi 04/30-04/6238-son maʼlumotnomasi). Natijada, qishloq xoʻjaligi ekinlari (paxta va boshqoli don ekinlari) bahorgi, yozgi va kuzgi oylaridagi maqbul muddatlarda monitoringini yuritish imkonini bergan.

qishloq xoʻjaligi ekin turlarini toʻgʻrisidagi kompleks maʼlumotlarni geovizuallashtiruvchi ishlab chiqilgan «R-GIS» nomli ochiq dasturi Qishloq xoʻjaligi vazirligi Qashqadaryo viloyati Qishloq xoʻjaligi boshqarmasida amaliyotga joriy (Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2022-yil 5-sentabrdagi 04/30-04/6238-son maʼlumotnomasi). Natijada, qishloq xoʻjaligi ekinlari (paxta va boshqoli don, dukkakli va moyli ekinlar, sabzavot va poliz ekinlari kabilar)ni toʻgʻri joylashtirishda tezkor va samarali maʼlumotlar toʻplash va saqlash orqali yerdan foydalanuvchilarga kompleks maʼlumotlarni taqdim etish hamda qishloq xoʻjaligi mutaxassislariga interaktiv xizmat koʻrsatish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari har yili «Oʻzdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining ilmiy-texnik kengashida koʻrib chiqilgan va ijobiy baholangan, jumladan 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maʼruza qilingan. Institutning ilmiy-texnik kengashida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 21 ta ilmiy ish, shundan 2 ta dasturiy taʼminotga mualliflik guvohnomasi olingan, 1 ta ilmiy-uslubiy tavsiyanoma, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning Oʻzbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbqiq etish roʻyxati keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirish va monitoringini yuritishning zarurati»** deb nomlangan birinchi bobi to‘rt qismdan iborat bo‘lib, 1.1-§.-«*Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan ekin turlari hususida*» deb nomlangan bo‘limida respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda, shuningdek Qashqadaryo viloyati hududida yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik ekinlari turlari va ularning muddatlari hususidagi ilmiy mushohadalar keltirilgan.

1.2-§.-«*Qishloq xo‘jaligi yerlari va ekinlari monitoringini yuritishning nazariy asoslari*» deb nomlangan bo‘limida qishloq xo‘jaligi yerlari va ekinlari monitoringiga bag‘ishlangan yer tuzish, kadastr va yer monitoringi yo‘nalishida so‘nggi yillarda bajarilgan ilmiy izlanishlar qisqacha tahlil qilingan bo‘lib, muallif bu borada, shu kunga qadar masofadan zondlash materiallari asosida qishloq xo‘jaligi ekinlari monitoringi ilmiy-amaliy asoslanmaganligini ko‘rsatadi degan xulosaga kelgan.

1.3-§.-«*Monitoring yuritish bo‘yicha jahon tajribalari*» deb nomlangan bo‘limida, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi monitoringini amalga oshirish bo‘yicha CARS (AQSH), GEOSYS (Fransiya), GRECON (Avstraliya), B-CGMS (Belgiya), Qozog‘iston va Hindiston monitoring tizimlari qisqacha tahliliy bayon qilingan.

1.4-§.-«*Yerning sun‘iy yo‘ldoshlari ma‘lumotlaridan foydalanish*» deb nomlangan bo‘limida, turli xil masofadan zondlash usullari va Yerning sun‘iy yo‘ldoshlar materiallari yordamida qishloq xo‘jaligi sohasida qo‘llash va ularning imkoniyatlari qisqacha tahliliy bayon qilingan.

I-bob yakunida respublikada qishloq xo‘jalik ekinlari monitoringini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi deb xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning **«Qashqadaryo viloyati yer fondi, qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan ekin yerlari va ekin turlari monitoringi tahlili»** deb nomlangan ikkinchi bobida uchta bo‘limdan iborat bo‘lib, 2.1-§.-«*Qashqadaryo viloyati yer fondi monitoringi tahlili*» deb nomlangan bo‘limida quyidagilar tahlil qilingan: Qashqadaryo viloyati umumiy yer fondining asosiy yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi jami qishloq xo‘jaligi yer turlari – 2 143,3 ming gektar (75%) tashkil etib, shundan ekin yerlari – 675,7 ming gektar (23,7%) ni, daraxtzorlar – 38,9 ming gektar (1,4%) ni, bo‘z yerlar – 21,9 ming gektar (0,8%) ni, yaylov va pichanzorlar – 1 409,8 ming gektar (49,2%) ni tashkil etadi.

2004-yilga nisbatan 2022-yil yer hisoboti monitoring tahlillariga ko‘ra, viloyat bo‘yicha jami qishloq xo‘jalik yerlari 56 573 gektarga kamayib ketganligi, shuningdek, Kasbi va Nishon tumanlarida mos ravishda 1 383 va 646 gektarga ortganligi aniqlandi. Bunda, 527 gektar Shahrisabz shahri yerlari tashkil etilishi munosabati bilan bog‘liq.

Qashqadaryo viloyati yer fondi ma‘lumotlarining ko‘p yillik monitoring tahlillari shuni ko‘rsatadiki, suv ta‘minoti yetishmasligi va sug‘orish inshootlari yaroqsiz holga kelib qolganligi hamda meliorativ holati yomonlashganligi tufayli sodir bo‘lgan.

Demak, mazkur holatlar viloyatdagi qishloq xo‘jaligi yerlarida muntazam monitoring olib borish orqali, ularni muhofazalash hamda asrab-avaylashga undaydi.

2.2-§. «Qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan ekin yerlari va ekin turlarining monitoringi tahlili» deb nomlangan bo‘limida Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan ekin yer maydonlari bo‘yicha olib borilgan yer hisoboti ko‘p yillik monitoringi tahlillariga ko‘ra, 2022-yilda 1992-yilga nisbatan 4 751 gektar, 2002-yilga nisbatan 7 348 gektar, 2012-yilga nisbatan 4 985 gektar sug‘oriladigan ekin yer maydonlari kamayganligi aniqlangan. Bu yerda 2022-yil yanvar holatiga sug‘oriladigan ekin yerlar maydoni jami 416 791 gektar deb hisoblasak, unda bu ko‘rsatkich har o‘n yilda viloyat miqyosida (1-jadval):

- ▶ 1992-yilga nisbatan 1,1% (4 751 ga);
- ▶ 2002-yilga nisbatan 1,5% (7 348 ga);
- ▶ 2012-yilga nisbatan 1,2% (4 965 ga) sug‘oriladigan ekin yerlar kamayishi jarayoni aniqlandi.

Demak, so‘nggi 30 yillik monitoring tahlillarida, Qashqadaryo viloyati miqyosida sug‘oriladigan ekin yerlar maydoni har o‘n yilda o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi 1,3% ni tashkil etib, kamayayotganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

**Qashqadaryo viloyatidagi sug‘oriladigan ekin yer maydonlarining
yer hisobi monitoringi, gektar hisobida
(1992-2002-2012-2022 yillar bo‘yicha tahlili)**

				2022 yilda		
1992 yilda	2002 yilda	2012 yilda	2022 yilda	2012 yilga nisbatan, + ; -	2002 yilga nisbatan, + ; -	1992 yilga nisbatan, + ; -
421542	424139	421776	416791	-4985	-7348	-4751

Izoh: Davryergeodezkadastr» qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ma‘lumotlari muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.*

2022-yil yanvar holatiga qishloq xo‘jaligi ekin turlari (paxta, g‘alla, sabzavot, yem-hashak va boshqa ekinlar) maydoni jami 346 331 gektar deb hisoblasak, unda bu ko‘rsatkich har olti yilda viloyat miqyosida (2-jadval):

- 2004-yilga nisbatan 8,2% (28 295 ga);
- 2010-yilga nisbatan 7,0% (24 061 ga);
- 2016-yilga nisbatan 1,4% (4 696 ga) ekin turlar yer maydonlarining kamayganligi aniqlandi.

2-jadval

**Qashqadaryo viloyatidagi ekin turlarining (paxta, g‘alla, sabzavot,
yem-hashak va boshqa ekinlar) monitoringi, gektar hisobida
(2004-2010-2016-2022 yillar bo‘yicha tahlili)**

				2022 yilda		
2004 yilda	2010 yilda	2016 yilda	2022 yilda	2016 yilga nisbatan, + ; -	2010 yilga nisbatan, + ; -	2004 yilga nisbatan, + ; -
374626	370392	351027	346331	-4696	-24061	-28295

Izoh: Qashqadaryo viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi ma‘lumotlari muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.*

Demak, so‘nggi 20 yillik qishloq xo‘jaligi ekin turlari monitoring tahlillarida, Qashqadaryo viloyati miqyosida qishloq xo‘jaligi ekin turlari maydonining kamayganligi va har olti yillik o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi 5,5% ni tashkil etganligi aniqlandi. Bunday tendensiya ekin turlari maydonlarining keskin qisqarishi inqirozidan dalolat beradi.

2.3-§. «Qishloq xo‘jaligida davriy, joriy va kunlik monitoring ishlarini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish» deb nomlangan bo‘limida quyidagilar yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 22-son qarorida davriy, joriy va kunlik monitoring ishlarini amalga oshirish mexanizmi belgilab qo‘yilgan.

Biz tomondan olib borilgan monografik tadqiqotlarda quyidagilar aniqlandi:

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini yuritish bo‘yicha amaldagi meyoriy-huquqiy hujjatlarda asosiy ekinlar bo‘yicha monitoring o‘tkazish nazarda tutilgan, biroq takroriy, oraliq va to‘qsonbosti ekinlari bo‘yicha monitoring o‘tkazish tartibi belgilanmagan. Bu borada monitoring natijalarini qayd qilish shakllari (qaydnomalari) o‘z aksini topmagan.

Bu borada biz tomondan qishloq xo‘jaligi ekinlari monitoringini yuritish usulini takomillashtirish bo‘yicha takroriy, oraliq va to‘qsonbosti ekinlari monitoringini yuritish TARTIBI sxemasi taklif qilinadi (3-jadval).

3-jadval

Takroriy, oraliq va to‘qsonbosti ekinlari monitoringini yuritish tartibi sxemasi

Monitoring turlari	Monitoring o‘tkaziladigan tadbirlar	Monitoring o‘tkazish muddatlari
Takroriy ekinlar	1) Yer tayyorlash;	iyun-avgust
	2) Ekish;	
Oraliq ekinlar	3) Unib chiqish;	fevral-mart,
	5) O‘simliklarni rivojlanish davri;	noyabr-dekabr
	6) Qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yig‘im-terim davri.	
To‘qsonbosti ekinlar	7) Boshqa tadbirlar.	sentabr-oktabr

Eslatma: Bu yerda asosiy va bog‘-tok qator oralari ekinlari inobatga olinmagan.

Yuqoridagi 3-jadval ma’lomotlaridan ko‘rinadiki, bunda:

- asosiy ekinlar bo‘yicha (mart-aprel, oktabr-noyabr);
- takroriy ekinlar bo‘yicha (iyul-avgust);
- oraliq ekinlar (fevral-mart);
- to‘qsonbosti ekinlar (sentabr) deb belgilandi.

Dissertatsiyaning «**Qishloq xo‘jalik ekinlari monitoringini tashkil etishni takomillashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobi 3.1-§. «Uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida qishloq xo‘jaligi ekinlari monitoringini tashkil etish» bo‘limida 1000 ga qishloq xo‘jaligi ekin yerlarini turli xil usullar yordamida masofadan zondlashning qiyosiy tahlili keltirilgan. Bunda an’anaviy usulda materiallarni qayta ishlash bilan birga jami 10 kunda 5 nafar yer tuzuvchiga

8 800 000 so'm sarflansa, kartografik dron-Foxtech AYK-250 VTOL Inspection Combo uslubi qo'llanilganda, jami 4 soatda 3 nafar yer tuzuvchi operatorga jami 880 000 so'm miqdorida mablag' talab etiladi. Asosiysi ma'lumotlarning aniqligi 99% bo'lishiga erishiladi.

Dissertatsiyaning 3.2-§. «*Qishloq xo'jalik ekinlari monitoringini Yer geoaxborot tizimlari yordamida tashkil etish*» deb nomlangan bo'limida shartli 1000 gektar qishloq xo'jaligi ekin yerlarini an'anaviy usullarga nisbatan va masofadan zondlashning qiyosiy tahlil qilinganda quyidalar aniqlangan:

An'anaviy usulda materiallarni qayta ishlash bilan birga jami o'n kunda 5 nafar yer tuzuvchiga 8 800 000 so'm sarflansa, masofadan zondlash uslubi qo'llanilganda, jami 4 soatda 1 nafar yer tuzuvchi operatorga jami 220 000 so'm miqdorida mablag' talab etiladi. Eng asosiysi ma'lumotlarning aniqligi 70-100% bo'lishiga erishiladi.

Dissertatsiyaning 3.3-§. «*Qishloq xo'jaligi ekinlari monitoringini tashkil etish usulini takomillashtirish*» deb nomlangan bo'limida bugungi kundagi amaliyotda mavjud bo'lgan turli xil dasturiy ta'minotlar qiyosiy tavsifi va muallif tomondan Python dasturlash tili Django framework yordamida «R-GIS» dasturiy ta'minoti (28.07.2022 y. №DGU 17925) yaratilganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Qishloq xo'jaligi ekin yerlari va turlarini aniqlashda, avvalambor ularning maydonlari hamda chegaralarini aniqlash bo'yicha asosli materiallarni to'plash, ya'ni yer sun'iy yo'ldoshlari ma'lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu borada zamonaviy ilmiy-uslublar yondoshuvlar mavjud bo'lib, ular orqali ekin turlari ma'lumotlar bazasini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, mamlakatimiz sharoitida aksariyat yerdan foydalanuvchilar amaliyotda qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish jarayonida o'zlariga biriktirilgan maydonlarda yaxlit kontur kesimi bo'ylab ekinlarni joylashtirishga to'liq amal qilmaydilar va bu albatta, nafaqat ular uchun, balki boshqaruv organlari uchun ham qator nomutanosibliklarni vujudga keltiradi.

An'anaviy usublardan foydalangan holda olingan suratlarni deshifrovkalash orqali qishloq xo'jaligi ekin turlarini aniqlash, ularning holatini hamda u yerdagi qishloq xo'jaligi ekinlari monitoringini yuritish masalalari o'ta dolzarb bo'lib, bu borada yuzaga kelayotgan muammolarni zamonaviy masofadan zondlash usullari yordamida bartaraf etishi mumkin.

Bu borada biz tomondan masofadan zondlash ma'lumotlari orqali Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani A.Xoliqov nomli massivda tanlangan pilot uchastkada (330 va 331-konturlarda) 2018-2022 yillarda dala maydonlarida ekilgan qishloq xo'jaligi ekin turlari tarkibini aniqlash uchun ekinlarning vegetatsiya davrlari (aprel-oktabr oylari)da Sentinel 2 sun'iy yo'ldoshi orqali olingan ko'pspektral suratlardan keng foydalanildi.

Odatda, Sentinel 2 sun'iy yo'ldoshining fazoviy imkoniyati aniqligi 10 metrgacha bo'lgan ko'k, yashil, qizil va infraqizilga yaqin bo'lgan to'lqin uzunliklaridan tashkil topgan spektorlardan iborat bo'ladi. Mazkur sun'iy yo'ldoshdan olingan suratlarni ma'lumotlar arxividan yuklab olish orqali qishloq


xo'jalik ekin turlari va ularning rivojlanish fazalari, ya'ni vegetatsiya davriga mos ravishda amalga oshirildi.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlash lozimki, bizningcha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari sharoitida g'o'za (paxta) va boshqoli don (g'alla) ekinlari ekilgan maydonlar uchun NDVI ko'rsatkichlar aniq davrini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, har qanday makon va zamon sharoitida olinadigan monitoring tahlillari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish amaliyoti uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani A.Xoliqov nomli massiv fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining sug'oriladigan ekin yerlariga 2022-yil hosili uchun qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish bo'yicha 1:10 000 masshtabli xaritasi ham tuzildi.

Biz olib borilgan tadqiqotlar jarayonida 2018-2022 yillarning aprel, iyun, avgust va oktabr oylarida Sentinel 2 kosmik suratlar yordamida olingan NDVI ko'rsatkichlari orqali g'o'za va boshqoli don ekinlarining monitoringi yuritildi.

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani A.Xoliqov nomli massivi qishloq xo'jaligi ekinlari NDVI ko'rsatkichlari 2018-yil mavsumlari misolida 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani A.Xoliqov nomli massivi NDVI ko'rsatkichlari (2018 yil, aprel, iyun, avgust va oktabr oylari).

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani A.Xoliqov nomli massivi tanlangan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida tashkil etilgan pilot uchastkalar (330 va 331-konturlar) misolida paxta va g'alla ekinlarini NDVI ko'rsatkichlari orqali monitoringini yuritish davri aniqlandi. Bunda, ko'p sonli monitoring tahlillari asosida NDVI ko'rsatkichlari orqali bahorgi davri –

1-30 aprel, yozgi davri – 1-30 iyun va 1-30 avgust, kuzgi davri – 1-30 oktabr deb belgilandi.

Olingan ma'lumotlar tahlillari 1-chi yil (2018-yil) an'anaviy monitoring tahlillariga nisbatan 95-100% holatda ishonchlilik darajaga ega ekanligi o'z isbotini topdi. Xususan, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida g'o'za (paxta) va boshqoli don (g'alla) ekinlarini Sentinel 2 kosmik suratlar yordamida olingan NDVI ko'rsatkichlari orqali monitoringini yuritishning bahorgi, yozgi va kuzgi davrlari asoslab berilganligini 4-jadval misolida ko'rish mumkin.

Tahlillarga ko'ra, 2018-2022 yillarda Sentinel 2 kosmik suratlar yordamida olingan NDVI ko'rsatkichlari an'anaviy monitoring ma'lumotlariga qiyosiy solishtirilganda, piksellar soni bo'yicha ranglar palitrasi aniqlandi.

Biz tomondan tadqiqotlar jarayonida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari sharoitida g'o'za va boshqoli don ekinlarini Sentinel 2 kosmik suratlar yordamida olingan NDVI ko'rsatkichlari orqali monitoringini yuritishning maqbul muddatlari (bahorgi, yozgi va kuzgi) asoslandi.

4-jadval

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani A.Xoliqov nomli massivda ekilgan qishloq xo'jaligi ekinlari Sentinel 2 kosmik suratlar yordamida olingan NDVI ko'rsatkichlari monitoringi (2018-2021 yillar bo'yicha)

T/r	Kontur raqami	Ekin turi	20.04.2018 y.	19.06.2018 y.	13.08.2018 y.	12.10.2018 y.
1	330	Paxta	-0,04-0,23	0,19-0,25	0,34-0,56	0,29-0,42
2	331	G'alla	0,54-0,79	0,19-0,30	0,05-0,17	-0,14-0,17
			10.04.2019 y.	14.06.2019 y.	23.08.2019 y.	12.10.2019 y.
3	330	G'alla	0,56-0,78	0,19-0,32	-0,17-0,21	-0,25-0,18
4	331	Paxta	-0,03-0,28	0,19-0,23	0,50-0,76	0,31-0,42
			24.04.2020 y.	28.06.2020 y.	12.08.2020 y.	21.10.2020 y.
5	330	Paxta	0,001-0,27	0,22-0,15	0,52-0,80	0,24-0,34
6	331	G'alla	0,59-0,78	0,22-0,33	-0,17-0,22	-0,11-0,15
			09.04.2021 y.	13.06.2021 y.	17.08.2021 y.	16.10.2021 y.
7	330	G'alla	0,57-0,79	0,16-0,27	-0,08-0,19	-0,23-0,15
8	331	Paxta	-0,08-0,22	0,16-0,26	0,44-0,66	0,15-0,24

Bu yerda shuni alohida e'tirof etishimiz lozimki, masofadan zondlash materiallari NDVI ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ko'p sonli materiallar tahliliga ko'ra, bir qator qonuniyatlarga bo'ysunishi aniqlandi. Bunda ranglar palitrasi bo'yicha aniq tashxis qo'yish mumkinligi aniqlandi. Jumladan:

G'o'za ekini ekilgan maydonlarda NDVI ko'rsatkichlari **bahorgi davrda** (01-30 aprel kunlari) eng minimal ko'rsatkichi qiymati -0,04; maksimal ko'rsatkichi esa 0,28 ni tashkil etishi aniqlandi.

Yozgi davrda (01-30 iyun va 01-31 avgust kunlari) eng minimal ko'rsatkichi qiymati iyun oyida 0,15 va avgustda 0,34; maksimal ko'rsatkichi esa iyun oyida 0,22 va avgustda 0,80 ni tashkil etishi aniqlandi.

Kuzgi davrda (01-30 oktabr kunlari) eng minimal ko'rsatkichi qiymati 0,15; maksimal ko'rsatkichi esa 0,42 ni tashkil etishi aniqlandi.

Boshqoli don ekini (g'alla) ekilgan maydonlarda NDVI ko'rsatkichlari bahorgi davrda (01-30 aprel kunlari) eng minimal ko'rsatkichi qiymati 0,54; maksimal ko'rsatkichi esa 0,79 ni tashkil etishi aniqlandi.

Yozgi davrda (01-30 iyun va 01-31 avgust kunlari) eng minimal ko'rsatkichi qiymati iyun oyida 0,16 va avgustda -0,08; maksimal ko'rsatkichi esa iyun oyida 0,33 va avgustda 0,22 ni tashkil etishi aniqlandi.

Kuzgi davrda (01-30 oktabr kunlari) eng minimal ko'rsatkichi qiymati -0,11; maksimal ko'rsatkichi esa 0,18 ni tashkil etishi aniqlandi.

Masofadan zondlash materiallari NDVI ko'rsatkichlari bo'yicha tuzilgan xaritalarga qarab vizual tashxis qo'yilganda quyidagilar aniqlandi, jumladan:

G'o'za ekini ekilgan maydonlar:

1. To'q qizil – Bo'sh/yangi chigit qadalgan dala maydoni rangi;
2. Qizg'ish – G'o'za ekinining dastlabki vegetatsiya davridagi maydon rangi;
3. Yashil – G'o'za ekinining faol vegetatsiya davridagi maydon rangi;
4. Sarg'ish, ayrim joylari yashil – G'o'za qator orasiga boshqoli don ekilgan maydon rangi.

G'alla ekini ekilgan maydonlar:

Yashil – Boshqoli don ekini ekilgan maydon (erta bahorgi vegetatsiya davri) rangi;

Olovrang – G'alla o'rilgan davrdagi maydon rangi;

To'q qizil – Shudgor/bo'sh ekilmagan maydon rangi.

Demak, masofadan zondlash materiallari (NDVI ko'rsatkichlari) orqali qishloq xo'jaligi ekinlari (paxta va g'alla) monitoringini yuritish uslubi qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Shu bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida qishloq xo'jaligi ekinlari davriy, joriy va tezkor monitoringi yuritiladi. Mazkur amaliy tadbirlar respublika miqyosida 1200 nafar hududiy yer tuzuvchilar tomonidan qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlarining monitoringi **qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish rejasi > ArcGIS dasturi > an'anaviy monitoring > Field Map mobil ilovasi > ArcGIS Imagery ochiq kosmosurat > ArcGIS dasturi ketma-ketligi mexanizmi** asosida monitoringi amalga oshiriladi. Biroq, shu bugungi kunda joylardagi hududiy yer tuzuvchilar tomonidan NDVI asosida qishloq xo'jaligi ekinlari monitoringi yuritilmaydi.

Yuqoridagilardan keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, shu bugungi kunga qadar mamlakatimiz sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlarini NDVI asosida monitoringi yuritish bo'yicha alohida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmagan.

Aynan shu holatlardan kelib chiqan holda, bizning tadqiqotlar qishloq xo'jaligi ekinlari monitoringini tashkil etish uslubini takomillashtirishga qaratildi.

